

INDEKS 1072



EZGU FIKR, EZGU SO'Z, EZGU AMAL!

8-DEKABR – O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KONSTITUTSIYASI QABUL QILINGAN KUN

ILM SARCHASHMALARI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETINING
ILMIY-NAZARIY, METODIK JURNALI



2021-11

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ILM SARCHASHMALARI

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining FILOLOGIYA, FALSAFA, FIZIKA-MATEMATIKA hamda PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrdir.

11.2021

научно-теоретический методический журнал
Издаётся с 2001 года

Urganch – 2021

Шомирзаев Махматмурод Хурамович. Халқ ҳунармандчилигида “Кластер” методидан фойдаланишнинг инновацион стратегияси.....	99
Madaminov Azimbek Egamberganovich. Talabalarning jismoniy madaniyat ta'lim yo'nalishida ilmiy tadqiqot olib borish parametrlari.....	102
Худайбердиева Нодира Абдуякубовна, Норкулов Шавкат Турғунбоевич, Қидиров Аброр Қудратович, Ғайназаров Бунёд, Камардинова Чарос Бахтиёр қизи. Жисмоний тарбия ва спорт соҳасида педагогик кадрлар тайёрлаш тизимини такомиллаштириш хусусида.....	105
Юлдашев Жавоҳир Абдурахим ўғли. Талабаларда тарих фани орқали аксиологик билимларни ривожлантириш.....	110
Davlatova Hulkaroy. The Influence of the English Language on the Speech of Uzbek Children.....	112

ILMIY AXBOROT

Ҳайитов Акмал Холбоевич. Талаба-ёшлар бўш вақтининг таркибий тузилиши.....	116
Самигова Хушнуда Ботировна, Маматқулова Нодира Файзулла қизи. Эркалаш ва кичрайтириш термини изоҳи турли тиллар нигоҳида.....	118
Амонтурдиева Шоира. Диний матнларда гапнинг ифода мақсадига кўра турларининг қўлланилиши.....	122
Babayev Mahmud Tashpulatovich. O'quv mashg'ulotlari jarayonida nemischa suffikslar yordamida otlarning yasalishini o'rganish.....	126
Naydarova Nodirabegim Ahtamjon qizi. Badiiy diskursda inson fiziologiyasi bilan bog'liq til birliklarining lingvomadaniy tahlili.....	128
Каримов Рустам Абдурасулович. Параллел корпуснинг лингвистик хорижий тил лингводидактикасидаги аҳамияти ва таржимонлик соҳасидаги имкониятлари.....	131
Абдухамидова Дилафруз Абдухабирова. Япон тилида 母-хаха (она) сўзи ва унинг семантик моделлари.....	134
Ўйдошев Улуғбек Равшанбекович. Бадий таржима муаммоларини бартараф этиш усуллари.....	140
Одилова Гулноза. Амир Темур даврида халқнинг овқатланиш рақибони ва сарой зиёфатларида шарқона хизмат кўрсатиш анъаналари.....	143
Ismoilov Pyos. Iskandarning Hindiston va Chinga yurishlari Alisher Navoiy talqinida.....	147
Саидова Мухайё Умедилоевна. Инглиз адабиётшунослик терминларини ўзбек тилига таржима қилиш масалалари.....	150
Mizrabova Jeren Ismailovna. Ingliz tilidagi kalamburning o'zbek tiliga tarjimasida qayta yaratish muammolari.....	153
Батиршина Жумакул Колмирзаевна. “Уста ва Маргарита” романининг ўзига хос бадий хусусиятлари.....	157
Ashirova Anorgul Ismoilovna, Baltaeva Iroda Ismailovna, Yangibayeva Reymajon Adilbekovna, Allaberganova Nasiba Muradovna. Articulate storyline dasturida test yaratish uslubiyoti.....	159
Тўхлиев Мансур Махмудович. Такимилаштирилган кўёш сув иситиш коллекторини тадқиқот қилиш.....	164
Shukurova Sabohat Odilovna. Shaxs va jamiyat paradokslarining obrazlar evolutsiyasidagi interpretatsiyasi.....	167
Qurbonova Shahlo Shuhratovna. Jamiyat konsepsiyasi va ko'p qatlamli tasvir.....	170
Shodiev Shahobiddin Sharofiddinovich. “Makbet” va “Abulfayzxon” tragediyasida falsafiy so'zlar va tabiat va jamiyat tushunchasi.....	173
Абдуллаева Раъно Хикматовна. Ценностный аспект эстетической репрезентации пословиц узбекского и русского языков.....	176
Юсупова Камола. Исторические формы рекламы в государствах древнего мира.....	179
Ibrokhimova Dilshoda Turayevna. Studying the Phenomenon of Humanity at the Center of the Universe is the Main Principle of the Philosophy of Anthropocentrism.....	182
Abdinazarov Khasan Shaymanovich. Lexical Deficiency of Oil and Gas Terminology Observing in Translation from English into Uzbek language via GT (Google-translate).....	186
Arslonbekova Rano. Principles of Business Correspondence.....	189

FANIMIZ ZAHMATKASHLARI

Самарали меҳнат натижаси.....	194
Эл саломатлиги фидойиси.....	195

Babayev Maxmud Tashpulatovich (BuxDU Tarjimashunoslik va
lingvodidaktika kafedrası o'qituvchisi; email: maxmudbabaev1963@gmail.com)
**O'QUV MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA NEMISCHA SUFFIKSLAR YORDAMIDA
OTLARNING YASALISHINI O'RGANISH**

Аннотация. Ushbu maqolada nemis tilini o'rganish jarayonida nemischa suffikslar yordamida har uchchala roddagi otlarning yasashini o'rganish va xorijiy tilni o'rganish jarayonida faqatgina suffikslarni yodlash yo'li bilan juda ko'plab otlarning artikllari bilan yodlash jarayonini osonlashtirish, suffikslar yordamida nemis tilida yangi so'zlarning yasashi va ularning tarjimasini o'rganish muammolari yoritilgan.

Аннотация. В данной статье раскрываются проблемы изучения образования рода имен существительных трёх родов, использования немецких суффиксов в процессе изучения немецкого языка, облегчения процесса запоминания многих артиклей имен существительных только запоминанием суффиксов в процессе изучения иностранного языка, обсуждаются проблемы изучения их построения и перевода.

Annotation. This article reveals the problems of studying the formation of the gender of nouns of three genders, using German suffixes in the process of learning German and facilitating the process of memorizing many articles of nouns only by memorizing suffixes in the process of learning a foreign language, using suffixes in German, discusses the problems of studying their construction and translation.

Калит so'zlar: suffikslar, otlar, mujskoy rod otlari, jenskiy rod otlari, sredniy rod otlari, artikllar.

Ключевые слова: суффиксы, род имени существительного, мужской рода, суффиксы имени существительного женского рода, суффиксы имени существительного среднего рода, артикли.

Key words: suffixes, gender of a noun, gender of a masculine noun, gender of a feminine noun, gender of a neuter noun, articles.

O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi ma'lumotlari asosida yoritilgan ma'lumotlarga murojaat etadigan bo'lsak, suffiks (lot. suffixus – qadalgan, biriktirilgan), so'ng qo'shimcha – affikslarning bir turi, so'z oxiriga qo'shiladigan, yangi so'z yoki so'z shakli yasaydigan qo'shimcha. Masalan, *suvcchi*, *olmazor*, *onaxon*, kitoblar so'zlaridagi *-chi*, *-zor*, *-xon*, *-lar* qo'shimchalari suffikslardir. Joylashish o'rniga ko'ra suffiks affiksning infiks (so'z o'zagi o'rtasida bo'ladigan) va prefiks (so'z o'zagi oldidan qo'shiladigan) turlariga qarama-qarshi qo'yiladi.

Nemis tilida suffiksning o'zi so'zning aniq bir qismidir, masalan, otlarning rod ko'rsatkichi, ko'pincha, suffiks yordamida aniqlanadi. Nemis tilida o'zbek tilidan farqli ravishda, uchta rod (mujskoy rod (männliche Geschlecht – Maskulina), jenskiy rod (weibliche Geschlecht – Feminina) va sredniy rod (sächliche Geschlecht – Neutra) otlarining borligi, bu otlarning har biri o'zi otdan oldin kelib, uning rodini, sonini va kelishigini ko'rsatib beruvchi artikllar yordamida qo'llanishini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu artikllarning aniq va noaniq artikllarga ajratilishi, har bir roddagi otlar uchun alohida artikllarning qo'llanilishi (mujskoy rod otlari uchun *ein/der*, jenskiy rod otlari uchun *eine/die*, sredniy rod otlari uchun *ein/das*), artikllarning noto'g'ri qo'llanilishi so'zning ma'nosini o'zgartirib yuborishi nemis tilini o'rganuvchilar uchun ma'lum ma'noda qiyinchiliklar tug'dirishini inobatga oladigan bo'lsak, artikllarning nemis tili grammatikasidagi ahamiyati qanchaligi ma'lum bo'ladi. Nemis tilidagi suffikslarni yodlab olib, til o'rganuvchilar o'zlarini ko'plab nemis so'zlarining artikllari bilan yodlashdan qutqarishlari mumkin! Bundan tashqari, sifat suffikslari va fe'l suffikslari mavjud, ular sizga biror narsani, masalan, ma'lum bir so'zni qanday to'g'ri tushunish, hatto tarjima qilishni ham aytib berishi mumkin. Ushbu maqolada biz nemis suffikslarining xilma-xilligi va ularning maqsadini batafsil ko'rib chiqamiz.

Nega bu suffikslarning barchasini o'rganish kerak? Avvaliga, boshlang'ich maktab kursini va suffiksli so'zning ma'nosini esga olishimiz mumkin. Biz hammamiz maktabda suffiksning so'zning muhim qismi ekanligini, u ildizdan keyin joylashganligi, odatda, yangi so'zlar hosil qilish, so'zning ma'nosini o'zgartirish uchun xizmat qilishini bilib olgan edik. Bu – eng muhimi. Ya'ni, so'zning suffiks kabi bunday kichik, ba'zida sezilmaydigan qismi, umuman, so'z yasash, xususan, nemischa so'z yasash uchun juda muhimdir.

Suffikslar har qanday nutq bo'lagiga ma'lum bir semantik jilo beradi, shuning uchun ham suffikslarning ma'nosini bilib, lug'atsiz ham, butun so'z nimani anglatishini taxminan tushuna olish mumkin. Ha, bu tilni o'rganishda katta yordamdir, chunki siz so'zni ishlatishning stilistik nozikligini tahlil qilishni va mustaqil tushunishni o'rganasiz. Yuqorida aytib o'tilganidek, suffikslar har doim o'ziga xos funksi-

yaga ega bo'lib, semantik rol deb ataluvchi funksiyasi, bu rolning xususiyatlari suffiksning qaysi nutqqa tegishli ekanligiga bog'liq.

Ot yasovchi suffikslar. Aytish mumkinki, nemis tilidagi otlarning juda ko'p suffikslari mavjud bo'lib, ular yordamida nemis tilidagi uchta rodga mansub otlarni yasash mumkin. Ayrim usullarni ko'rib chiqamiz.

Mujskoy roddagi otlarning yasalishi. Mujskoy roddagi otlar *fe'llar va boshqa otlardan*, ko'pincha, bu geografik nomlar bo'lishi mumkin) nemischa *-er* yoki *-ler*, *-ner*, *-ling* suffikslari yordamida yasaladi va quyidagilarni belgilab beradi:

1. Ko'pincha, harakatdagi shaxs (ma'lum bir kasb vakillari, ma'lum yoshdagi, dunyoqarashga ega, ma'lum bir sifatlarga ega shaxslar va hokazo):

♦ *der Schuler* (*die Schule* – maktab otidan yasalgan) – maktab o'quvchisi;

♦ *der Tischler* (*der Tisch* – stol otidan yasalgan) – duradgor usta;

♦ *der Amerikaner* (*Amerika* – Amerika otidan yasalgan) – amerikalik;

♦ *der Liebling* (*die Liebe* – sevgi otidan yasalgan) – sevimli.

2. Turli xildagi dastgohlar, anjomlar, uy-ro'zg'or buyumlari nomlari:

♦ *der Wecker* – uyg'otgich;

♦ *der Hammer* – to'qmoq.

Eslatma! Agar *-er* suffiksi otning o'zagiga tegishli bo'lsa, bunday otlar nafaqat mujskoy, balki har qanday rodga tegishli bo'ladi:

der Bruder – aka (uka), *die Schwester* – opa (singil), *das Fenster* – deraza;

shuningdek, mujskoy rodga *-ent*, *-ant*, *-at*, *-är*, *-or*, *-eur*, *-ier* o'zlashgan suffikslari bilan keluvchi otlar ham kiradi. Misol uchun:

♦ *der Dozent* – dotsent, *der Laborant* – laborant, *der Kandidat* – kandidat, *der Millionär* – millioner, *der Lektor* – lektor, *der Regisseur* – rejissor, *der Offizier* – ofitser va hokazo.

Jenskiy roddagi otlarning yasalishi. Jenskiy roddagi otlar mujskoy roddagi otlarga *-in* suffiksini qo'shish orqali yasaladi:

♦ *der Lehrer* – *die Lehrerin*/muallim – muallima;

♦ *der Schuler* – *die Schülerin*/o'quvchi – o'quvchi (qiz);

♦ *der Löwe* – *die Löwin*/arslon – arslon (urg'ochi).

Agar siz *-ung*, *-heit*, *-keit*, *-schaft* va *-ei* suffikslari faqat jenskiy roddagi otlarda uchrashini eslab qolsangiz, siz jenskiy roddagi otlarni bemalol farqlay olasiz:

♦ *die Übung* – mashq, *die Gesundheit* – salomatlik, *die Tätigkeit* – faoliyat, *die Meisterschaft* – chempionat, *die Konditorei* – qandolatchilik.

Shuningdek, jenskiy rodga *-t* va *-st* suffikslari bilan yasalgan so'zlar mavjud bo'lib, bunday otlar *fe'llardan* kelib chiqqan: *fahren* – *die Fahrt*/bormoq – safar.

Jenskiy roddagi otlarga xorijiy tillardan o'zlashgan, *-ie*, *-ik*, *-ion*, *-tät*, *-(a)tion*, *-ur* suffikslari bilan yasalgan otlar ham kiradi:

♦ *die Historie* – hikoya, tarix, *die Grammatik* – grammatika, *die Diskussion* – diskussiya, bahs, *die Fakultät* – fakultet, *die Demonstration* – demonstratsiya, namoyish, *die Literatur* – adabiyot.

Sredniy roddagi otlar. Sredniy roddagi otlar kichraytiruvchi-erkalovchi ma'nolarni beradigan *-chen*, *-lein* suffikslari yordamida yasaladi:

♦ *der Vogel* – *das Vöglein* (qush – qushcha);

♦ *die Katze* – *das Kätzchen* (mushuk – mushukcha);

♦ *der Hund* – *das Hündchen* (kuchuk – kuchukcha).

Eslatma! Suffikslar yordamida yangi so'zlarni shakllantirishda (nafaqat sredniy roddagi otlar uchun!), odatda, otning ildizidagi unli tovush o'zgarib, u umlaut oladi.

Shuningdek, *-nis*, *-sal*, *-tum* kabi suffikslar mavjud bo'lib, bu suffikslar umumiy ma'noli otlarni hosil qiladi, masalan:

♦ *das Schicksal* – taqdir;

♦ *das Rittertum* – ritsarlik.

Agar ot *fe'ldan* yasalgan bo'lsa va o'zak *-en* suffiksiga ega bo'lsa, u biror-bir jarayonni bildiradi va har doim sredniy rodga bo'ladi:

♦ *lesen* – *das Lesen*;

♦ *sprechen* – *das Sprechen*.

Shuningdek sredniy roddagi otlar xorijiy tillardan kirib kelgan **-ment** va **-(i)um** suffikslari yordamida ham yasaladi:

♦ *das Testament* – vasiyat, *das Firmament* – osmono‘par, *das Museum* – muzey, *das Präsidium* – minbar.

Istisno! die Kenntnis (bilim), der Reichtum (boylik), die Irrtum (xato, adashish) **-tel** suffiksi bilan yasaluvchi otlashgan sonlarni han qayd etib o‘tish kerak: *ein Drittel* – uchdan bir, *ein Viertel* – to‘rtidan bir va hokazo.

Yuqorida qayd etilgan barcha suffikslarni yodlash orqali ko‘pgina nemischa otlarning artikllarini bilib olish mumkin. Ammo nemis tilidagi suffikslar mavzusi shu bilan tugamaydi. Sifatlar, fe‘l va ravishlar suffikslari tilni o‘rganishda otlarning suffikslari kabi muhim yordamga ega bo‘lmasa-da, lekin ularni ham mukammal bilish foydali bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 8-jild, Toshkent, 2003, 169-bet.
2. S.Saidov. DEUTSCHE GRAMMATIK IN ÜBUNGEN. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2003.
3. Hans Witzlinger. Deutsch aber Hallo! www.deutschkurse-passau.de
4. Babayev Makhmud Tashpulatovich. Using Multimedia Technologies in Teaching Foreign Languages. Middle European scientific bulletin, 12, p. 64 – 67.
5. V.T.Babayeva, M.T.Babayev. Studing Foreign Language E-Conference Globe, 2021, p. 7 – 13.
6. Babayev Makhmud Tashpulatovich, Babayeva Vasila Tashpulatovna. USE of Proverbs, sayings and Expressions in teaching German. International Engineering Journal for Research&Development Vol. 6, 2021, p. 52 – 56.
7. Yulduz, Mehmonova. Lexico-grammatical Parts of Speech Expressing the Indefiniteness of the Subject. Journal NX, vol. 7, № 1, 2021, pp. 323 – 327.
8. To‘laganov A.A. va boshqalar. Deutsch-usbekisches Wörterbuch-Buxoro, 2018, “Durdona” nashriyoti.
9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Suffiks>

Haydarova Nodirabegim Ahtamjon qizi (Buxoro davlat universiteti
Tarjimashunoslik va lingvodidaktika kafedrasida o‘qituvchisi)

BADIIY DISKURSDA INSON FIZIOLOGIYASI BILAN BOG‘LIQ TIL BIRLIKLARINING LINGVOMADANIY TAHLILI

Annotatsiya. Maqolada badiiy diskursda inson fiziologiyasi bilan bog‘liq til birliklarining berilishi va ularning lingvomadaniy tahlili amalga oshirilgan.

Аннотация. Статья посвящена представлению языковых единиц, связанных с физиологией человека, в художественном дискурсе и их лингвокультурному анализу.

Annotation. The article deals with the presentation of language units related to human physiology in the artistic discourse and their linguocultural analysis.

Kalit so‘zlar: badiiy diskurs, lingvokulturologiya, antroposentrizm, lingvistik va sotsiomadaniy omillar.

Ключевые слова: художественный дискурс, лингвокультурология, антропоцентризм, лингвистические и социокультурные факторы.

Key words: literary discourse, linguoculturology, anthropocentrism, linguistic and sociocultural factors.

Bugungi zamonaviy tilshunoslik sohasida “Diskurs” atamasi juda keng qo‘llanilmoqda. “Diskurs – bu ekstralingvistik-pragmatik, sotsial-madaniy, psixologik omillar bilan birgalikdagi izchil matn hisoblanib maqsadli ijtimoiy harakat sifatida qaraladigan nutq, odamlarning o‘zaro ta’siri va ularning ongi mexanizmlari (kognitiv jarayonlar)da ishtirok etuvchi komponent sifatida qaraladi. Shu sababli “diskurs” atamasi, “matn” atamasidan farqli o‘laroq, hayot bilan aloqasi tiklanmagan qadimiy va boshqa matnlarga qo‘llanilmaydi”.

Y.S.Stepanov diskursni quyidagicha ta’riflaydi: “Diskurs – bu “tilda til”, lekin maxsus ijtimoiy shaklda berilgan. Diskurs, haqiqatan ham, tilda bo‘lgani kabi, uning “grammatikasi” va “leksikoni” ko‘ri-